



## KESH'S ROLE IN THE CENTRAL GOVERNMENT OF SUGHD

<sup>1</sup> Kurbonova Maryam

<sup>1</sup> Master of History of Uzbekistan, Samarkand State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4744764>

### ARTICLE INFO

Received: 20<sup>th</sup> April 2021  
Accepted: 25<sup>th</sup> April 2021  
Online: 30<sup>th</sup> April 2021

### KEY WORDS

*Kesh, Sugd, Shishpir, Shopur*

### ABSTRACT

*In the early Middle Ages, Kesh property in the south of Sughd was mentioned. An attempt was made to shed light on the geopolitical place and role of Kesh in the Sogdian confederation. The position of the cache in the region in the VII-VIII centuries was analyzed*

## KESHNING SUG'D MARKAZIY HOKIMIYATIDA TUTGAN O'RNI

<sup>1</sup> Qurbonova Maryam

<sup>1</sup> Samarqand Davlat Universiteti O'zbekiston tarixi magistranti

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-aprel 2021  
Ma'qullandi: 25-aprel 2021  
Chop etildi: 30-aprel 2021

### KALIT SO'ZLAR

*Kesh, Sug'd, Shishpir, Shopur*

### ANNOTATSIYA

*Ilk O'rta asrlarda janubiy sug'dda joylashgan Kesh mulk haqida to'xtalindi. Sug'd konfederatsiyasida Keshning geosiyosiy o'rni va ro'li masalasini yoritib berishga harakat qilindi. Keshning VII-VIII asrlardagi mintaqadagi mavqei tahlil etildi.*

Qashqadaryo vohasi Pomir-Oloy tog' tizmasining g'arbiy tarmog'ida joylashgan bo'lib, uning yuqori qismida, sharqdan Shahrizabz vohasi, quyi qismi esa g'arbdan Qizilqum cho'llari orqali o'ralgan<sup>1</sup>. Vohada shahar madaniyatining rivojlanishi O'zbekiston hududidagi boshqa vohalarga nisbatan ancha erta boshlangan.

Janubiy Sug'd yerlari hozirgi Qashqadaryo vahasiga to'g'ri kelgan. Qashqadaryo vohasi O'rta Osiyoning

shaharsozlik qadimdan rivojlangan viloyatlaridan biri bo'lib, vohada shaharsozlikning ildizlari miloddan avvalgi VIII-VII asrlarga borib taqalishini so'nggi arxeologik tadqiqotlar isbotlab berdi. Qashqadaryo vohasi Janubiy G'arbiy O'zbekistonning yirik va muhim viloyatlaridan biri hisoblangan. Qashqadaryo vohasi tabiati va tarixiy-iqtisodiy holatiga

<sup>1</sup> Шишкина Г.В., Сүлейманов Р.Х., Кошеленко Г.А. Согд // Древнейшие государства Кавказа и

Средней Азии. Археология СССР. – М: 1985. – С. 173-180.



ko'ra O'zbekistonning Surxondaryo, Buxoro va Samarqand viloyatlari bilan bog'langan<sup>2</sup>.

Voha Pomir-Oloy tog' tizimining ikki g'arbiy tizmalari - Zarafshon va Hisor tog'lari oralig'ida joylashgan bo'lib, shimolda Samarqand viloyati, Shimoliy-G'arb va g'arbda Navoiy va Buxoro viloyatlari bilan chegaralanadi. Shimoliy-Sharqda baland Chaqirkalon tog'i orqali voha Tojikiston Respublikasi bilan, janubda va Janubi-G'arbda Turkmaniston Respublikasi bilan chegaralanadi. Voha chegarasining umumiy uzunligi 795 km.ni tashkil etib, uning 405 km. tog'li, qolgan 390 km. tekislikka to'g'ri keladi<sup>3</sup>.

Voha sharqdan garbga 300 km. sharqdan janubga 200 km. gacha cho'zilgan bo'lib, uning umumiy hududi 28,4 ming km kv.ni tashkil etib, bu butun O'zbekiston hududining 6,3 foiziga tengdir. Qashqadaryo vohasi geografik jihatdan ikkita yirik tarixiy viloyatga - Shahrisabz va Qarshiga bo'linadi. Shahrisabz vohasi (Qadimgi Kesh) Qashqadaryoning yuqori oqimida joylashgan bo'lib, Sharqdan Hisor tog' tizmalari bilan o'ralgan. Quyi Qashqadaryoda, vohaning tekislik qismida esa Qarshi (Qadimgi Naxshab) viloyati joylashgan bo'lib, u G'arbda Sandiqli qumliklari orqali Qizilqum bilan tutashib ketgan. Qadimda Qashqadaryo vohasi Buxoro va Samarqand bilan birgalikda Sug'diyona tarkibiga kirgan bo'lib, uning yuqorida ta'riflangan chegaralari qadimgi Janubiy Sug'd hududiga to'g'ri keladi.

Vohaning asosiy suv manbai bo'lgan Qashqadaryo nomi butun vohaning umumiy nomiga aylangan. Bu daryo Hisor tog'

tizmalarining g'arbiy qismida, Tavtosh tog' davoni yaqinida, dengiz sathidan 3 ming metr balandlikdan boshlanadi. Daryoning uzunligi 300 km ga yaqin bo'lib, u asosan Sharqdan G'arbgacha tomon oqadi va o'rta oqimida Jindaryo, Oqsuv, Tanxozdaryo kabi kichik daryolarni o'ziga qo'shib oladi. Ba'zi tadqiqotchilar fikricha, Qashqadaryo to XII asrgacha Zarafshon daryosining quyi oqimiga quyilgan<sup>4</sup>.

Tadqiqotchilar tomonidan Qadimgi Poykent shahri yaqinida Zarafshon daryosiga quyilgan Qashqadaryoning eski o'zani topib aniqlangan. Vohaning ikkinchi yirik suv manbai Yakkabog'daryo (Qizildaryo) hisoblanadi. Bu daryo eski Yakkabog' yaqinida ikki oqimga Qorabog' (G'arbiy yo'nalishda) va Qizilsuvga (Shimoliy - G'arbiy yo'nalishda) bo'linadi, Qizilsuv Qo'rg'on qishlog'i yaqinida Tanxozdaryoga kelib qo'shiladi<sup>5</sup>. Vohaning yana bir muhim suv manbai G'uzordaryo bo'lib, Katta va Kichik O'radaryolarning qo'shilishidan hosil bo'ladigan bu daryo qadimda Qashqadaryoning chap irmog'i hisoblangan.

Vohaning suv resurslari yuqorida keltirilgan daryolardan hosil bo'ladi. Shu bilan birga, vohaning yuqori Sharqiy qismida, tog' va tog' oldi zonalarida kichik soylar, buloqlar ham o'ziga xos ahamiyatga egadir. Qashqadaryo vohasi hududida abadiy muzliklar va qorlar bilan qoplangan baland tog'lar, chorvachilik hamda lalmi dehqonchilik va bog'dorchilikni rivojlantirish uchun qulay bo'lgan tog' oldi adirlari, hosildor tekisliklar va dashtlar mavjud. Voha hududini gidrologik va xo'jalik rayonlariga bo'lish mumkin. Vohada

<sup>2</sup> Природные условия и ресурсы юго-западного Узбекистана. -Т.: Наука, 1965. С. 58.

<sup>3</sup> Кашкадарьинская область. Т.1. Природа. //Труды САГУ. Новая серия. Вып.155. Географические науки. Кн. 14. -Т.: САГУ, 1959. С. 5.

<sup>4</sup> Гулямов Я.Г. Исследование исторической географии низовьев Кашкадарьи и Зеравшана. ИМКУ. Вып.6. -Т.: Фан, 1965. С. 21.

<sup>5</sup> Лунина С. Б. Города Южного Согда в VII-XII вв. -Ташкент: 1984. С. 11-12.



Jom, Qarshi va Nishon dashtliklari ham katta hududni egallaydi. Vohaning G'arbiy qismi Sandiqli qumliklari bilan o'ralgan.

Voha hududida mavjud bo'lgan tog'lar va tog' oldi zonalari, adirlar, keng dashtlar va sug'oriladigan maydonlar qadimdan sug'orma va lalmi dehqonchilikni, chorvachilikni, bog'dorchilikni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Vohaning tog'li hududlarida mavjud bo'lgan foydali qazilmalar hamda qishloq xo'jalik xomashyo manbalari hisobiga vohada qadimdan iqtisodning muhim tarmog'i bo'lgan hunarmandchilik ham rivojlanib kelgan edi.

Xo'jalikning asosiy tarmog'i bo'lgan dehqonchilik ildizlari vohada qadim tarixga ega. Ba'zi manbalarga qaraganda Hisor tog'larining tog' va tog' oldi hududlarida yovvoyi bug'doy va arpa maydonlari mavjud bo'lib, bu vohada qadimdan dehqonchilik, xususan, g'allachilikning rivojlanishiga zamin tayyorlagan.

Arxeologik tadqiqotlarning dalolat berishicha, vohadagi dastlabki dehqonlarning makonlari tog' oldi hududlarida, daryo vodiylarida ilk temir davridayoq paydo bo'ladi. Ahmoniylar davriga kelib, bunday makonlar vohada 5 ta - Yerqo'rg'on, Qizildaryo, Guldaryo, Qayrag'och, Tanhodaryo bo'lgan<sup>6</sup>.

Antik davrda ham suvli Qarshi vohasini sug'orish uchun Zarafshon daryosidan uzunligi 200 km ga yetgan yirik kanal qazilgani ma'lum<sup>7</sup>. Bu ham vohada sug'orma dehqonchilikni rivojlantirishga xizmat qilganligi shubhasiz.

O'rta asrlar davriga kelib, vohada dehqonchilik yuksak darajada rivojlandi.

Tadqiqotchilar fikricha, VII asrlarda Qashqadaryo vohasida sug'orma va lalmi dehqonchilik ancha rivojlangan bo'lib, g'allachilik, uzumchilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik dehqonchilikning yetakchi tarmog'i edi.

Bu davrda vohada ipakchilik, paxtachilik kabi dehqonchilikning qadimgi tarmoqlari ham ancha rivojlanganligi ma'lum. Aholining o'troqlashuv jarayoni Janubiy Sug'd hududining tarixiy geografik jixatdan taraqqiyotida muxim omil bo'lib xisoblanadi. Yozma manbalar hamda vohada olib borilgan izchil arxeologik izlanishlar Janubiy Sug'dda ikki iqtisodiy va ma'muriy hudud, ya'ni, Qashqadaryoning yuqori oqimida, Zarafshon va Hisor tog' yon bag'irlaridan daryoning o'rta oqimi havzasigacha bo'lgan sharqiy hududda Kesh mulki hamda daryoning quyi oqimiga qadar cho'zilgan havzada Naxshab mulki shakllanganligi xususida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Janubiy Sug'dning tarixiy geografik tahlilini dastlab Sharqiy Qashqadaryo, ya'ni qadimgi Kesh hududidan boshlaymiz. Sharqiy Qashqadaryoning bosh shahri turli tarixiy davrlarda Nautaka, Kesh, Shahrisabz nomlari bilan atalgan. Bu shaharning qadimgi davr va o'rta asrlarda O'rta Osiyo tarixi va madaniyatida tutgan ahamiyati katta edi.

Milodiy III-IV asrlarda vohaning xar ikkala kismida asosan, dehqonchilik uchun qo'lay bo'lgan daryo irmoqlari hamda bo'loq bo'ylarida o'troqlashish jarayoni kuchayadi. Tadqiqotlarga ko'ra, fakatgina Kesh mulki hududlarida mazkur davrda umumiy xisobda taxminan 4 ming gektarga yaqin ekin maydonlari o'zlashtiriladi. Suv havzalarining izchil o'zlashtirib borilishi bir kator dehqonchilik vohalari hamda ularning

<sup>6</sup> Сагдуллаев А. С. Древнесогдийские памятники / АО 1978 г. – Москва: 1979. С. 560.

<sup>7</sup> Мухаммаджанов А.Р. К истории ирригации в кушанскую эпоху. В кн. Центральная Азия в кушанскую эпоху. Т.3. – М.: 1975. С. 279.



negizida kichik mulklarning qaror topishiga zamin yaratadi. Janubiy Sugʻdning sharqiy qismida shu kabi dehqonchilik vohalaridan biri Gʻuzordaryo havzasida karor topadi.

Kesh hozirgi Qashqadaryo viloyatining shimoli-sharqiy qismini egallagan. Keshning ham geografik xususiyatlari Panch kabi oʻziga xos boʻlib, togʻ etagida joylashgan. Dastlab mazkur shahar hozirgi Kitob oʻrnida boʻlgan boʻlsa, keyinchalik u hozirgi Shahrisabz hududiga koʻchgan<sup>8</sup>. Kesh janubda Naxshab, sharqda Panjikent, shimolda Samarqand va janubi-gʻarbda Buxoro vohasi bilan chegaradosh. Boshqa hukmdorliklar kabi Keshning chegaralari togʻ va togʻ oldi hamda pasttekisliklardan oʻtgan.

Xitoy manbalarida, *Szyuysha* viloyatining poytaxti *Sishi*, oʻrta asr manbalaridagi “Kesh-Kashsh” (“oqmoq”, “oqib chiqmoq”) (*Kaş / Kiş*)ga<sup>9</sup> VII asrda asos solingan<sup>10</sup> mazmunida fikrlar mavjud edi. Bu esa Kesh shahrining yoshini aniqlashni chalkashtiradi. Keshning 2700 yilligini asoslashga xizmat qilgan arxeologik yodgorliklar mavjudki<sup>11</sup>, bu Qashqadaryo vohasidagi Uzunqir shahar xarobasi boʻlib, yodgorlik A.Sagdullayev rahbarligida O.Lushpenko tomonidan oʻrganilgan<sup>12</sup>. Bu esa Kesh shahrining ildizi qadimiyroq ekanligi va shahar sifatida maʼlum bir davrda poytaxtlikka daʼvo qilishga asos boʻlganligidan dalolat

beradi. Lekin Keshning mazkur qadimiyat davri konfederasiya uchun daxldor emas.

Xitoy yilnomalarida Kesh shahri nomining turlicha shakllarda uchrashi shaharning tashkil topgan davrini aniqlashda chalkashliklarga sabab boʻlgan. Milodiy IV asrga daxldor deb qaralgan Yuqori Hind vodiysidan topilgan 563- raqamli yozuvda *xwtʼwnʼmk ZK kšyknḏc* – *Keshkanddan* (*Kesh shahridan*) *Xutāvnāmak* iborasida Kesh shahar sifatida talqin etilgan.

Sugʻd konfederasiyasining Kesh hukmdorligi toʻgʻrisida Xitoy manbalarida baʼzi maʼlumotlar keltiriladi. Yilnomalarda Keshga quyidagicha taʼrif berilgan: “*Shy* (Kesh), ayni paytda *Kyuysha* va *Gyeshuanna* deb ataladi. *Dumo* (Qashqadaryo) daryosining janubiy tomonida joylashgan. Bu (qadimdagi) *Kangyuy* (Qangʻ davlati) tarkibidagi *Suxe* (Sugʻd)ning eski hududidir. Gʻarbda *Nashebo* (Naxshab)gacha 150 *li*, shimolda *Mi* (Maymurgʻ)gacha 200 *li* masofada hamhududdir, janubda *Tuxolo* (Toxariston)gacha 400 *li*. U yerda Temir-darvoza (Darband)<sup>13</sup> (deb nomlanadigan) togʻ bor. ... Bu joy ikki mintaqa (Toxariston va Sugʻd)ni bir-biridan ajratib turuvchi chegara vazifasini bajaradi. ... Keshda har bir qurbonlik keltirish marosimida mingtagacha qoʻy soʻyiladigan ibodatxona bor. Har bir urushga ketishdan oldin shu yerda ibodat amalga oshiriladi.

<sup>8</sup> Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. – Ташкент: Фан, 2000. – С. 3

<sup>9</sup> Камалиддинов Ш.С. “Китаб ал-Ансаб” Абу Саъда Абдулкарима ибн Мухаммада ас-Самъани как источник по истории и истории культуры Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1993. – С. 108-109.

<sup>10</sup> Бартольд В.В. Кеш / Соч. – М: Наука, 1965. – Т. III. – С. 460; Chavannes E. Documents sur les Toukiue (Turcs) occidentaux. ... – P. 146.

<sup>11</sup> Шахрисабз шаҳрининг жаҳон тарихида тутган ўрни. Халқаро илмий конференция

маърузалари тезислари. – Тошкент: Фан, 2002. – 162 б.

<sup>12</sup> Лушпенко О. Раннежелезный век Южного Согда (по материалам памятников Китабского и Яккабагского районов): автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Самарканд: 1998. – С. 12-13, 17.

<sup>13</sup> Бу жой ўрта асрларда Дариоханин ёки Дарбанд деб аталган (Қаранг: Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: 1982. – Б. 116). “Дарбанд” форсийчадан “дарвоза” маъносини англатади.



Hukmdorlikning 500 ta shahri mavjud. ... Hududlarining faqatgina bir tomonining o'zi minglarcha *li cho'zilgan* ..."<sup>14</sup>.

Sug'd konfederasiyasida *Shishpirning* hukmronligi taxminan 645 yildan 655 yilgacha bo'lgan muddatda 10 yildan ortiqroq vaqt davom etgan. Samarqand taxtiga *Varxuman* (Avarxuman) – *β'rywм'n* (655 – 675) kelgach, butun Sug'd markaz Samarqand atrofida birlasha boshladi. 712 yildagi G'urak va Qutayba o'rtasidagi "Samarqand shartnomasi"ga ko'ra, Sug'd hududiga Keshning ham kiritilganligi shundan dalolat beradi.

Arablar bosqini davrida ular Keshda o'zlarining harbiy istehkomlarini barpo etishgan. Xalifalik kuchlari 710 yilda Keshni egallaganlaridan so'ng konfederasiya markazi Samarqand, shuningdek, Farg'ona, Choch, Turk xoqonligi koalitsiyasiga qarshi kurashda nasaflik va keshliklardan ham foydalanishgan<sup>15</sup>.

V.A.Livshisning ta'kidlashicha, *'γwrpt* – *aaxurpat* iborasi unvon sifatida Shopur I (Sosoniylar hukmdori; 239 – 241) davrida ham ishlatilgan. "Ka'bai Zardusht"da *Wārdan āxwar (r) pt* – *Vardan otxonasining boshlig'i* sifatida talqin etilgan *āxwar (r) pt* ayni *axurpat*

so'ziga yaqin<sup>16</sup>. Shopur I ning O'rta Osiyoga yurishlari davrida bu unvon Sug'dga kirib kelgandir. Bu esa *aaxurpat* unvonining milodiy III- asrlardan boshlab Sug'dda bo'lganligiga ishora beradi.

Mozori Sharif (Afg'oniston) yaqinidan topilgan va "oromiy-kushon" tangalari guruhiga daxldor deb hisoblangan VI-asrgacha bo'lgan Kesh hukmdorlari tomonidan zarb etilgan tangalar ilk marotaba Edmond Druen tomonidan nashr etilgan<sup>17</sup>. Mazkur tangalardagi sug'diy kursiv yozuv (VI- asrda vujudga kelgan<sup>18</sup>) asosida tadqiqotchilar Sug'd konfederasiyasining Kesh hukmdorligida tanga zarbida V asrdan VIII gacha uzilish bo'lmaganligini ko'rsatishga harakat qilishadi<sup>19</sup>. Ushbu tangalarning Toxariston hududidan topilishi ularning zarb qilingan hududlari bilan bog'liq tasavvurlarni yanada boyitadi. Bu esa sug'diy hukmdorlar Xitoy ta'sirida kvadrat teshikli tanga zarb etganliklari kabi VI- asrda Keshda sosoniylar yoki kushonlar ta'sirida tangalar zarb qilishgan, degan taxminni ilgari surishga imkon beradi. Sosoniylar davrida *aaxurpat* unvonining mavjudligi borasidagi fikr ushbu taxminni yanada kuchaytiradi.

<sup>14</sup> Ўзбекистон тарихи. (Хрестоматия). 2-жилд. 1-қисм. ... – Б. 43; Бичурин Н.Я. Собрание сведений. ... II. – С. 271-276, 280-287, 311-318.

<sup>15</sup> Отахўжаев А. Суғд конфедерациясида Кешнинг ўрни // Шаҳрисабз шаҳрининг жаҳон тарихида тутган ўрни. Халқаро илмий конференция материаллари. – Тошкент: Фан, 2002. – Б. 40.

<sup>16</sup> Лившиц В.А. Согдийская эпитафия. ... – С. 274-275.

<sup>17</sup> Лившиц В.А. Согдийская эпитафия. ... – С. 276.

<sup>18</sup> Исхаков М.М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры. ... – С. 97-102, 121-124.

<sup>19</sup> Лившиц В.А. Согдийская эпитафия. ... – С. 278.



## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Шишкина Г.В., Сулейманов Р.Х., Кошеленко Г.А. Согд // *Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. Археология СССР*. – М.: 1985. – С. 173-180.
2. Природные условия и ресурсы юго-западного Узбекистана. -Т.: Наука, 1965. С. 58.
3. Кашкадарьинская область. Т.1. Природа. //Труды САГУ. Новая серия. Вып.155. Географические науки. Кн. 14. -Т.: САГУ, 1959. С. 5.
4. Гулямов Я.Г. Исследование исторической географии низовьев Кашкадарьи и Зеравшана. ИМКУ. Вып.6. -Т.: Фан, 1965. С. 21.
5. Лунина С. Б. Города Южного Согда в VII-XII вв. –Ташкент: 1984. С. 11-12.
6. Сагдуллаев А. С. Древнесогдийские памятники / АО 1978 г. – Москва: 1979. С. 560.
7. Мухаммаджанов А.Р. К истории ирригации в кушанскую эпоху. В кн. Центральная Азия в кушанскую эпоху. Т.3. – М.: 1975. С. 279.
8. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. – Ташкент: Фан, 2000. – С. 3
9. Камалиддинов Ш.С. “Китаб ал-Ансаб” Абу Саъда Абдулкарима ибн Мухаммада ас-Самъани как источник по истории и истории культуры Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1993. – С. 108-109.
10. Бартольд В.В. Кеш / Соч. – М: Наука, 1965. – Т. III. – С. 460; Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue (Turcs) occidentaux. ... – P. 146.
11. Шахрисабз шахрининг жаҳон тарихида тутган ўрни. Халқаро илмий конференция маърузалари тезислари. – Тошкент: Фан, 2002. – 162 б.
12. Лушпенко О. Раннежелезный век Южного Согда (по материалам памятников Китабского и Яккабагского районов): автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Самарканд: 1998. – С. 12-13, 17.
13. Ўзбекистон тарихи. (Хрестоматия). 2-жилд. 1-қисм. ... – Б. 43; Бичурин Н.Я. Собрание сведений. ... II. – С. 271-276, 280-287, 311-318.
14. Отахўжаев А. Суғд конфедерациясида Кешнинг ўрни // Шахрисабз шахрининг жаҳон тарихида тутган ўрни. Халқаро илмий конференция материаллари. – Тошкент: Фан, 2002. – Б. 40.
15. Лившиц В.А. Согдийская эпиграфика. ... – С. 274-275.
16. Исхаков М.М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры. ... – С. 97-102, 121-124.